

Ushbu fan sillobusi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 07 dekabrda № 642-sonli bo'yruqi bilan ma'qullangan namunaviy dastur asosida tuzildi.

Tuzuvchi:
Aminov F.B

- "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.n.

Fan sillobusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasining 2022 yil "22" 08 dagi 1-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida 2022 yil "24" 11 dagi 1-son yig'ilishida muhokama qililib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil "29" 08 dagi 1-son yig'ilishi Qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv - uslubiy boshqarma boshlig'i

dots. Sh.R.Turdiyev

"Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasi raisi:

dots. A.B.Qurbonov

"Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası mudiri:

i.f.d., prof. S.N.Xamrayeva

FAN SILLABUSI QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"SOHA IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI" fani sillabusi

Fan (modul) kodi ECON	O'quv yili 2022-2023	Semestr 5	ECTS krediti 5-semestr 6
Fan (modul) turi umumkasbiy fan	Ta'lim tili o'zbek		Haftalik dars soati 6
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 90	Mustaqil ta'lim 90	Jami yuklama 180
Soha iqtisodiyoti va menejmenti			

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi	Innovatsion iqtisodiyot	Telefon nomeri	e-mail
O'qituvchilar	F.I.S.H.	+998914570811	qurbonovalisher@mail.ru
Ma'ruzachi	Qurbonov Alisher Boboqulovich		

I. FANNING MAZMUNI

"Soha iqtisodiyoti va menejmenti" fani korxonaning mohiyati va turlari, uni bozor iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati, resurslari va ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish omillari va yo'llari hamda respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va hududiy muammolarning menejment istiqboliga ta'siri masalalarini qamraydi. Ayniqsa, sanoatni rivojlantirish, xususan, sanoat korxonasi istiqbolini belgilash, korxonada zamonaviy va oqilona boshqaruv tizimi shakllantirishning maqsad va vazifalarini tanlash, korxonaga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar darajasini baholashda ushbu fan alohida o'rin tutadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - iqtisodiyotni modernizatsiyalash va sanoat tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirayotgan sharoitda sanoat korxonasi faoliyatini boshqarish usullarini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi - sanoat korxonasi iqtisodiyoti uni boshqarish, korxona xarajatlari, daromadi, raqobatbardoshligi, korxonalar samaradorligini oshirish, unga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar darajasini baholash, korxonaning innovatsion va investitsion faoliyati, ish kuchiga bo'lgan talablarni o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy faoliyat markazi bozor iqtisodiyotining asosiy bug'ini korxonaga o'tdi. Aynan shu darajada jamiyat uchun zarur bo'lgan mahsulotlar yaratiladi va xizmatlar ko'rsatiladi. Eng malakali kadrlar korxonada to'plangan bo'lib, ular resurslardan tejab-tergab foydalanish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish, strategik, joriy va operatsion rejalarni ishlab chiqish, samarali boshqaruvni amalga oshirish, innovatsion va investitsion faoliyatni amalga oshirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlash, investitsion faoliyat, xarajat, daromad va rentabellik, bahoni shakllantirish,

menjmentning tashkiliy strukturasi, boshqaruv usullari, marketing, qarorlar qabul qilishdir.

II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

- Sanoat korxonalari O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishi, soha rivojining shu kundagi ahvoli, soha mehnat resurslariga bo'lgan talablarni bashorat qilish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- korxonani moddiy-texnik ta'minotini tashkil qilish va rejalashtirishni, integratsion jarayonlarning ta'sirini, talab va taklifning qayishqoqligini, raqobatli bozorlarning samaradorligini, narxni tashkil qilish siyosatini, asosiy va aylamma vositalarni. investitsiyalarni jalb qilishni, innovatsiya jarayonlarining xususiyatlarini, korxonani boshqarish asoslarini, xodimlarni shakllantirish jarayonini, korxonaning xayot siklini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- talab va taklif nazariyasidan foydalanish, biznes-rejani ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

III. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish
- esse, tezis va maqolalar yozish
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish
- jarayonli yunalirilgan ta'lim
- muhokamalarda ishtirok etish
- kichik guruhlarda ishlash
- loyiha ishi bajarish
- mustaqil ishlarni bajarish
- taqdimot tayyorlash
- turli darajadagi testlarni yechish
- so'rov o'tkazish

IV. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1.	Sanoat korxonasi bozor iqtisodiyoti sub'ekti sifatida.	Kirish. Fanning mohiyati, maqsadi va vazifalari. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari. Korxona - iqtisodiyotning asosiy bug'ini Korxonalarning tashkiliy-xuquqiy shakllari.	2
2.	Korxonaning asosiy fondlari.	Asosiy fondlar tushunchasi, ahamiyati, tasnifi. Asosiy fondlarning yemirilishi va amortizatsiyasi. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi. Ishlab chiqarish quvvati.	2
3.	Korxonaning aylamma mablag'lari.	Korxonaning aylamma mablag'lari tushunchasi, tasnifi, tarkibi. Aylamma mablag'lardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari. Aylamma mablag'larini meyorlashtirish. Aylamma mablag'larini aylanishini tezlashtirish.	4
4.	Korxonaning mehnat resurslari	Korxona personalni va uning tarkibi. Mehnat unumdorligi. Ish xaqining mohiyati va uni tashkil etish. Mehnatga xaq to'lashning usullari.	2
5.	Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish	Ishlab chiqarish jarayoni va ishlab chiqarish sikli. Ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, turlari va usullari. Korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasi. Korxonani boshqarishning tashkiliy tuzilishi.	2

6.	Korxona xarajatlari	Korxona xarajatlari tushunchasi va turlari. Mahsulot tannaxrini tashkil etuvchi xarajalar. Mahsulot birligining tannaxri. Narxlarning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va turlari. Korxonaning narx siyosati.	2
7.	Korxonaning daromadi va foydasi	Daromad va foydaning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, turlari. Foyda darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Korxonada foydani oshirish yo'llari. Rentabellikning ko'rsatkichlari va mohiyati	4
8.	Sanoat korxonalarda rejalashtirish	Rejalashtirishning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Ishlab chiqarishni rejalashtirish tamoyillari. Rejalashtirish texnologiyasi va bashorat. Korxonaning biznes-rejalashtirish.	2
9.	Sanoat korxonalarda marketing	Marketing tushunchasi, mohiyati va funksiyalari. Bozor segmentatsiyasi. Iste'molchilarni o'rganish. Marketing vositalari.	2
10.	Sanoat korxonalarning innovatsion va investitsion faoliyati	Innovatsiyalarning mohiyati, turlari va ularning tasnifi. Innovatsion faoliyat subyektlari va innovatsiyalarni moliyalashtirish. Investitsiya tushunchasi va mohiyati. Investitsiya turlari.	4
11.	Menejment asoslari	Menejment tushunchasi va mazmuni. Menjment konsepsiyasi. Boshqaruv tamoyillari, boshqaruv funksiyalari. Boshqaruv usullari: iqtisodiy usullar, tashkiliy va ma'muriy usullar, ijtimoiy-psixologik usullar.	2
12.	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish	Boshqaruv qarorlarining tushunchalari, turlari. Qaror qabul qilish jarayonining mohiyati. Boshqaruv qarorlariga quyiladigan talablar. Qarorlarni muvofiqlashtirish prinsiplari	2

V. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

№	Mavzular	soat
1.	Sanoat korxonasi bozor iqtisodiyoti sub'ekti sifatida.	4
2.	Korxonaning asosiy fondlari.	4
3.	Korxonaning aylamma mablag'lari.	4
4.	Korxonaning mehnat resurslari	4
5.	Korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish	4
6.	Korxona xarajatlari	4
7.	Korxonaning daromadi va foydasi	4
8.	Sanoat korxonalarda rejalashtirish	4
9.	Sanoat korxonalarda marketing	4
10.	Sanoat korxonalarning innovatsion va investitsion faoliyati	4
11.	Menejment asoslari	4
12.	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish	4
13.	Sanoat korxonasi bozor iqtisodiyoti sub'ekti sifatida.	4
14.	Korxonaning asosiy fondlari.	4
15.	Korxonaning aylamma mablag'lari.	4
JAMM		60

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jilozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar

faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sanoat korxonasi uning menejmenti.
 2. Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish.
 3. Sanoatda raqobatbardoshlik
 4. Sanoat korxonalarini boshqarishning iqtisodiy usullari.
 5. Sanoat korxonalarini rentabelligi va uni hisoblash yo'llari.
 6. Ishlab chiqarish samaradorligini boshqarish.
 7. Ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash va tartibga solish.
 8. Innovatsiya samaradorligini baholash.
 9. Sanoat korxonalarining debitor qarzdorligini boshqarish.
 10. Sanoat korxonalarining uzoq muddatli aktivlari va amortizatsiya siyosati
 11. Sanoat korxonalarini moliyaviy diagnostika qilish
 12. Sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini baholash usullari
 13. Mahsulot assortimenti, mahsulot sotish va taqsimlashni boshqarish
 14. Sanoat korxonalarida rejalashtirish
 15. Asosiy fondlarning urtacha yillik qiymatini hisoblash
 16. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tamarxini hisoblash
 17. Narxni shakllanishi, baho turlari
 18. Marketingning mohiyati va maqsadi
 19. Qaror qabul qilish bosqichlari
 20. Boshqaruv qarorlariga quyiladigan talablar
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyihalar ish, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VII. Talabalar bilimni baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollarga javob berish orqali analga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi O'QMTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalar bilimni quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'lkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Oritqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. -T.:Sano-Standard, 2014. -304 b.
2. Махмудов Э.Х. Экономика промышленных предприятий. Учебник. -Т.: Iqtisodiyot-2015. -370 c.
3. Иванов И.Н., Беляев А.М. и др. Производственный менеджмент. Учебник для бакалавров/ под. ред. И.Н. Иванова. -М.:Юрайт, 2013. -574с.
4. Ulashev I.O., Atamurodov Sh.A. Korxona iktisodi va menejmenti. - G.: Tafakkur bustoni, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 25.01.2020 y.
7. SH.M.Mirziyoyev. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', xayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" «O'zbekiston» 2019 y.
8. SH.M.Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak Toshkent - «O'zbekiston» - 2017 «O'zbekiston» NMIU, 2017
9. SH.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz «O'zbekiston» NMIU, 2016
10. SH.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.:O'zbekiston, 2017
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son Qarori 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini Kompleks rivojlantirish dasturi
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947

sonli Farmoni 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2017. - 46 b.
14. N.X.Gulyamova. Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv-uslubiy qo'llanma.T.: 2013.148 b.
15. G.Taraxtiyeva. Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya", 2013. 208 b.
16. G.K.Taraxtiyeva, N.H.Gulyamova, K.S.Ibragimova "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy qo'llanma. 2018.

Axborot manbalari

17. <http://www.ziynet>
18. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
19. [http://www.norma/uz](http://www.norma.uz)
20. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali
21. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
22. www.minieconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi sayti.